

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.Nasritdinova	
Artpedagogikaning bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilari ijodkorlik qobiliyatları rivojidagi imkoniyatlari	312
G.Mo'minova	
Universitet talabalarining so'z o'rganish strategiyalaridan foydalangan holda leksik kompetensiyasini rivojlantirish	390
N.Mamatqulova	
Ta'llimda kredit-modul tizimini qo'llashning ayrim jihatlari	321
U.O'rishov	
Estrada jaz musiqasi evolyutsiyasi va uning nazariy-metodologik asoslari.....	325
S.Uraimov	
Maktabda gipertermiya sharoiti orqali jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini monitoring qilish	331
I.I.Toshpulatov	
Inson kapitali nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi	334
F.U.Mirjavharova	
Jamiyatda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy-siyosiy mohiyati	337
M.Y.Isaqov, D.R.Tojiboyev	
O'tloqi-voha tuproqlari tarkibidagi mikroelementlar tahlili va biologik singdirish koeffitsiyenti.	341
I.I.Muhitdinov	
Jinoyat geografiyasi va uning mohiyati, asosiy yo'nalishlari	346
T.X.Tashmetov	
Ijtimoiy tarmoqlardagi yot va zararli g'oyalarning o'ziga xos xususiyatlari	350
D.B.Makhametova	
Ta'llimdagи muqarrar yangi media	355
A.T.Akbarov	
Oilada kattalar sportini tashkillash.....	359
<hr/>	
FANIMIZ FIDOYILARI	
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, akademik	
Sayyora Sharafovna Rashidovaning 80 yilligiga	364

INSON KAPITALI NAZARIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

СТАНОВЛЕНИЕ И РАЗВИТИЕ ТЕОРИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА

FORMATION AND DEVELOPMENT OF HUMAN CAPITAL THEORY

Toshpulatov Isroyiljon Ismoilovich¹

1Toshpulatov Isroyiljon Ismoilovich

– Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya

Mazkur maqolada inson kapitalining samaradorligi iqtisodiyot va jamiyat taraqqiyotining to'xtovsiz rivojlanuvchi kuch ekanligi falsafiy tahlil qilingan. Bu esa inson faktorining ishlab chiqarish faktori sifatida samarali va oqilona amalda bo'lishini ta'minlovchi mehnat resurslarini, bilimlarni, aqliy mehnat unsurlarini intellektual faoliyatdagi samaradorligini ko'rsatkichi sifatidagi ahamiyati o'rganilgan. Inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishi sifatli, yuksak samarali mehnat va turmush darajasi ekanligi asoslangan.

Аннотация

В данной статье философски анализируется, что эффективность человеческого капитала является непрерывно развивающейся силой экономического и социального развития. Изучено значение человеческого фактора как показателя эффективности использования трудовых ресурсов, знаний, элементов умственного труда в интеллектуальной деятельности, что обеспечивает эффективное и рациональное функционирование человеческого фактора как фактора производства. Формирование и развитие человеческого капитала основывается на качественном, высокоеффективном труде и уровне жизни.

Annotation

In this article, it is philosophically analyzed that the efficiency of human capital is a continuously developing force of economic and social development. The significance of the human factor as an indicator of the effectiveness of labor resources, knowledge, mental labor elements in intellectual activity, which ensures the effective and rational operation of the human factor as a factor of production, has been studied. The formation and development of human capital is based on high-quality, highly effective work and living standards.

Kalit so'zlar: Inson kapitali, jamiyat rivojlanishi, inson kapitali samaradorligi, resurs, bilim, salohiyat, yangi texnologiyalar, innovatsiya.

Ключевые слова: Человеческий капитал, развитие сообщества, эффективность человеческого капитала, ресурс, знания, потенциал, новые технологии, инновации.

Key words: Human capital, community development, efficiency of human capital, resource, knowledge, potential, new technologies, innovation.

KIRISH

Inson kapitalining shakllanishi zamonaviy sharoitdagi o'ziga xos bo'lган jarayon hisoblanib, uning tarixiy jihatdan va hozirgi bosqichda turli nazariyalar va yondashuvlar tahlili nuqtai nazardan o'rganish inson kapitalining rivojlanish bosqichlarini tasavvur qilishga asos bo'ladi. Dunyoning yetakchi davlatlarining rivojlanishining shakllanishiga sabab bo'lган postindustrial jamiyat keyinchalik yangi bilim, innovatsiyalar, global axborot tizimlari, ilm-fan, va yangi texnologiyalarini yuksalishiga sabab bo'ldi. Bu jarayonlarning yuksalishiga zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy dominanti intellektual salohiyat (inson kapitali) shaklida namoyon bo'ladi. Darhaqiqat so'nggi yillarda zamonaviy jamiyatlarning yuksalishiga asos bo'layotgan intellektuallik, inson kapitali kabi jarayonlarni o'rganishga qiziqish keskin ortdi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti "O'zbekistonni 2030-yilga qadar global innovatsion indeks reytingida dunyoning yetakchi davlati qatoriga kirishdek ulkan maqsadga erishishda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik reja e'lon qilindi" [1.239.], deb ta'kidlaydi. Bu esa inson kapitali samaradorligini belgilab, ko'rsatib turuvchi indikator sifatidagi ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Bugungi kunda inson resurslari jamoaning asosiyligi boylikligi bo'lsa, jamiyatning asosiyligi inson kapitalining qay darajada ta'sir qilayotganidir. Inson kapitali natijasida inson resursi vujudga keladi. Masalan, bizningcha, inson kapitali insonning tug'ma yoki orttirilgan bilimlari, ko'nikmalari, qobiliyatlar, u o'z ishida foydalanishda namoyon bo'lsa, inson resurslari esa insonlar, ularning salohiyati, jismoniy va aqliy qobiliyatlar bo'lib, ulardan unumdarlik va mehnat

samaradorligini oshirish miqdori bilan baholanovchi ko'rsatkichdir. Boshqacha qilib aytganda, inson resurslari shaxsning jismoniy va ma'naviy qobiliyatlarining rivojlanish darajasi bilan tavsiflangan mehnatga layoqatli aholi, inson salohiyatining asosidir, desak ham to'g'ri bo'ladi. Inson kapitali nazariyasining shakllanishi davri sifatida o'tgan asrning 80-yillarda ishlatila boshlandi. XXI asrda inson kapitali yetakchi sohalarga jumladan, iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy yo'nalishlarga katta ta'sir o'tkazmoqda.

Sharq mutafakkirlari inson salohiyatini shakllantirish borasidagi qarashlari sifatida Abu Ali ibn Sinoni qo'yidagi fikrlari ahamiyatlidir. Jumladan, "Inson boshqalarning ehtiyojlarini qondirishi sababligina inson bo'ladi, boshqalar ham shunday yo'l tutadi. Birov ekin ekadi, boshqa odam non yopadi, uchinchisi kiyim tikadi, to'rtinchisi igna yasaydi va hamma bir-birining ehtiyojini qondirish uchun to'planadi"[2.120.] deyiladi. Bu esa uzoq vaqt davomida iqtisodiy taffakur moddiy boylik ortirish sohasida ro'y berayotgan jarayonlar ta'sirida ekanligini bildiradi.

Abu Rayxon Beruniy jamiyatda kishilar o'zaro hamkorlikda yashashlari kerakligi haqida "Muayyan vazifalarni bajarish zarurati bu insonning faoliyatining bir umrga yashash printsipidir" va bu printsipdan kelib chiqqan holda o'z fikrini davom ettirib "Insonning qadr-qimmati o'z vazifasini a'lo darajada bajarishdan iborat; shuning uchun ham insonning eng asosiy vazifasi va o'rni mehnat bilan belgilanadi"[3.83.]. Bu esa inson kapitali nazariyasining shakllanishi mehnat (ham aqliy, ham jismoniy) bilan bog'liq ekanligiga dalildir. Shuningdek, Beruniy boshqa asarida "Inson o'z xohishiga mehnat tufayli erishadi"[4.9.], deb inson salohiyatini ishga solgan holda faoliyat olib borishga undaydi. Yoki Abu Rayxon Beruniyning "Ruhiyat va ta'llim-tarbiya haqida"[5.52.] nomli asarida ham insonning aqliy faoliyati muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Alisher Navoiy inson o'z tafakkuri bilan har qanday vazifani hal eta olishini o'z asarlarida ochib bergen.

Ba'zi ilmiy manbalarda inson kapitali mustaqil nazariya sifatida 1960 yillarda Chikago universiteti professorlari T.Shults va G.Bekker tomonidan shakllantirilgan degan manbalarga duch kelamiz. Ularning fikricha, inson kapitali har bir insonda mavjud bo'lgan bilim, malaka va motivatsiyalar zahirasidir. U ta'llim, ishlab chiqarishda tayyorgarlik, sog'liqni saqlash, migratsiya, narx va daromad haqida ma'lumotlarni to'plashga xarajatlar shaklidagi insonga investitsiyalar (uzoq muddatli kapital qo'yilmalar)yo'l [6.314.], degan qarashni ilgari suradi. Bizningcha, bu qarashda ham ijtimoiy rivojlanishda insonga faqat ma'naviy sohadagina emas, balki takror hosil qilish aloqalarida ham markaziy o'rin ajratila boshlanganligini bildiradi. Zero, bevosita inson avloddan avlodga meros bo'lib qoladigan bilimlarni egallash va ulardan samarali foydalanish qobiliyatiga ega individ hisoblanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Inson kapitaliga nisbatan zamonaviy yondashuvlarni faylasuf olimlar U. Bouyen "Inson kapitali insonlarga berilgan va ma'lum vaqt mobaynida tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish maqsadida foydalanilishi mumkin bo'lgan bilim, malaka, motivatsiya va energiyalar yig'indisi"[7.362.] sifatida, F. Maxlup esa, "Insonning jismoniy va aqliy qobiliyatini ko'paytiruvchi investitsiyalar natijasida yanada samarador bo'ladigan mukammal mehnatdan nomukammal mehnatni ajratilishi, ya'hi mukammallashuv inson kapitalini tashkil etadi"[8.419.]deb o'z qarashlarini ifoda etgan edi. So'nggi o'n yilliklarga kelib kapital faqatgina moddiy (jismoniy) aktivlardan iborat degan fikr o'z kuchini yo'qotdi. Endi kelajakda daromad oqimini ta'minlay oladigan har qanday moddiy yoki insoniy aktivlar kapitaldir degan fikrga kelina boshlandi. Bu esa insoniyat uchun mavjud bo'lgan muammolarni yechishga qodir aql ekanligini uning mohiyati va rivoji bo'yicha turli falsafiy qarashlar mavjud ekanligini bildiradi. Demak, zamonaviy yangilanayotgan jamiyatda iqtisodiy taraqqiyotga sabab bo'luvchi omil inson kapitali hisoblanadi. Rivojlanish avvalo inson ongi va tafakkurida ro'y berishi ijtimoiylashuvga sabab bo'ladi. Samaradorlik esa rivojlanishning keyingi bosqichi sifatida jamiyatdagi insonlar ta'sirining salmog'i va natijadorligi belgilaydi. Bu esa inson kapitalini kelajakka sarmoya sifatidagi eng muhim xususiyatlarini o'rganish zaruratini vujudga keltirmoqda. Dunyoning raqobatbardosh mamlakatlari safiga kirishning bir talabi – bu intellektual kapital hisoblanib, u har qanday jamiyatni rivojlanishi intellektual investitsiyalarni kiritilishi nafaqat mamlakat iqtisodiyotini balki ijtimoiy barqarorlik va samaradorlikka olib kelishiga ishonch beradi. Inson kapitali kelajakka intellektual sarmoya sifatida o'rganish jamiyat taraqqiyotini iqtisodiy rivojlanish jihatlarini prognozlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Inson kapitali nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi taraqqiyotga erishishning eng qisqa yo'lidan borish imkonini beradi. Chunki, intellektual va madaniy salohiyat egalarini tarbiyalash

hozirgi davrda mamlakat ijtimoiy va iqtisodiy sohasidagi jadal o'zgarishlarni boshlab beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashri.-Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti. 2022.
2. Raximov S.R. Psixologo-pedagogicheskiye vzglyady Abu Ali ibn Siny. – Toshkent. Ukituvchi, 1979.
3. Abu Rayhon Beruniy. Geodeziya. –Toshkent. 1966. .
4. Abu Rayxon Beruniy. Minerologiya. Toshkent. 1963.
5. Abu Rayhon Beruniy. Ruhiyat va ta'lim-tarbiya haqida. –Toshkent: O'qituvchi, 1992.
6. Ekonomika narodnogo obrazovaniya. Uchebnik dlya studentov pedvuzov. Pod. red. Kostanyana S. L. 2 – ye izdaniye. Moskva. 1986.
7. Bowen H. Investment in learning – San Francisco 1978.
8. Machlup F. The Economics of Information and Human Capital. –Princeton- 1984.